

Kontrafakt va iste'molga yaroqsiz tovarlar haqida Soliq hamkor tizimi orqali xabar berish tizimi yo'lga qo'yiladi

Vazirlar Mahkamasining **“Iste'molchilar huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, kontrafakt va iste'molga yaroqsiz tovarlarni ishlab chiqarish hamda aylanmasiga chek qo'yishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”**gi qarori qabul qilindi. (188-son 5.05.2023 y)

Hujjatga ko'ra, sertifikatlanmagan, saqlash muddati o'tib ketgan, kontrafakt va iste'molga yaroqsiz tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha **vakolatli organlar tomonidan 23 ta holatda** aholi murojaatlarini **Soliq hamkor** axborot tizimi orqali qabul qilish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Bunda murojaatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish hamda rag'batlantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

◆ axborot tizimi orqali kelib tushgan murojaatlar nazorat va boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun asos bo'ladi;

◆ murojaatlar vakolatli organlar* tomonidan 10 ish kunida majburiy tartibda ko'rib chiqilib, natijasi bo'yicha murojaatchi xabardor qilinadi (qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno).

◆ Tasdig'ini topgan qonun buzilishi holatlari bo'yicha xabar bergan shaxslar vakolatli organlar tomonidan:

▪ ma'muriy huquqbuzarlik uchun jarimaning 20 foizi;

▪ jinoyatlar uchun BHM 5 baravarigacha miqdorda rag'batlantiriladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi raqamli texnologiyalar vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **ikki oy muddatda vakolatli organlar tomonidan “Soliq hamkor” axborot tizimidan** foydalangan holda qonun buzilishi holatlari haqidagi xabarlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

**Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-apreldagi PQ-110-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan bo'lib, unda sertifikatlanmagan, saqlash muddati o'tib ketgan, kontrafakt va iste'molga yaroqsiz tovarlarni ishlab chiqarish holatlari hamda ularning aylanmasiga chek qo'yish bo'yicha yuboriladigan murojaat turlari va ularni ko'rib chiqishga vakolatli organlar ro'yxati tasdiqlangan. (<https://lex.uz/docs/6423137#6423306>)*

Soliq nazorati departamenti